

**SIVILIZATSIYA TUSHUNCHASI MOHIYATI VA MAZMUNI “ SHAHAR”  
TARIXIY TUSHUNCHASINI ANGLASHDAGI ILMIY USLUBIY  
YONDASHUVLAR**

*Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'li*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix fakulteti talabasi*

*Tel: +998919058632*

*E-pochta [sattorovfirdavs1612@gmail.com](mailto:sattorovfirdavs1612@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyo shaharlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi dastlabki sivilizatsiyalar, ularning paydo bo'lishi, taraqqiyoti haqida shaharlarning shakllanishi davri tarixi O'rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlari va o'troq aholisining rayonlashuvi haqida xulosa qilib beradi.

**Kalit so'zlar:** A.Toynbi, I.M.Dyakonov, sivilizatsiya, Yu.V.Kachanovskiy, Namozgoh, Oltintepa, Sopolli, Xitoy, Hindiston, A.Asqarov, I.Masson.

**Аннотация:** В данной статье будут обобщены возникновение и развитие городов Средней Азии, первые цивилизации, их возникновение и развитие, история образования городов, первых городских центров в Средней Азии и районирование оседлого населения.

**Ключевые слова:** А.Тойнби, И. М. Дьяконов, свилизация, Ю. В. Качановский, Намозгох, Олтинтепа, Сополли, Китай, Индия, А. Аскарлов, И. Массон.

**Annotation:** In this article, the emergence and development of the cities of Central Asia, the first civilizations, their emergence and development, the history of the formation of cities, and the regionalization of the first urban centers and settlements in Central Asia are summarized.

**Keywords:** A.Toynbee, I.M. Dyakonov, sivilization, Yu.V. Kachanovsky, Namozgoh, Oltintepa, Sopolli, China, India, A. Askarov, I. Masson,

Dastlabki sivilizatsiyalar, ularning paydo bo'lishi va taraqqiyoti, sivilizatsiyaning ilmiy - nazariy tahlili, sivilizatsiyaga tarixiy - falsafiy yondashuv, umuman Sharq va G'arb sivilizatsiyalarining qiyosiy tahlili masalalri bo'yicha A. Toynbi, O.Shpingler, K.Yaspers, I.M.Dyakonov, V.M.Masson, L.S.Vasilev, M. Barg, M.F.Albedil, A.V.Koptev, Yu.V.Yakovets kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar<sup>23</sup>.

Dunyo tarixiga fikran nazar tashlaydigan bo'lsak, turli hududlarda ijtimoiy - iqtisodiy va tabiiy sharoitlardan kelib chiqib o'ziga xos sivilizatsiyalar taraqqiy etganligini kuzatishimiz mumkin. "Sivilizatsiya " so'zi lotincha so'z bo'lib aynan tarjimasi " fuqorolik " ( " civilis" degan ma'noni anglatadi. Ijtimoiy fanlarda sivilizatsiya tushunchasi asosan madaniyat va madaniy taraqqiyotning barcha qirralarini ofodalovchi tushuncha sifatidagi mazmun kasb etadi. Ushbu mazmuni qisqacha ta'riflaydigan bo'lsak, sivilizatsiya tushunchasi - muayyan hududlarda yashaydigan odamlarning turmush tarzi va xo'jalik yuritish faoliyati, ushbu odamlar hamda hududlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ma'lum davrlarda yaratilgan ma'naviy va moddiy madaniyat, jamiyatning taraqqiy etish jarayonida odamlarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatining ta'siri samarasini anglatadi.

Ushbu bo'limda sivilizatsiya rivojlanishining dastlabki bosqichi, uning tarkibiy qismlari paydo bo'lgan va asta - sekin shakllanib, butun jamiyatga yoki tizimga sifat jihatidan yangi xususiyatlar olib kirgan arxaik muhitni tarixiy tahlil asosda ko'rib chiqishga harakat qilamiz<sup>24</sup>. Ta'kidlash joizki, shakllanishning dastlabki bosqichida sivilizatsiya jarayonlari asosan arxeologik ma'lumotlar asosida o'rganilib, ushbu ma'lumotlar sivilizatsiyaning tashqi va ichki qiyofasini nisbatan yaqqolroq aks ettiradi.

<sup>23</sup> Eshov B, Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. Toshkent, 2006. – B. 6

<sup>24</sup> Eshov B, Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. Toshkent. 2006. – B. 7–8

Dastavval sivilizatsiyaning asosiy mezonlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, Yu.V.Kachanovskiy o'zigacha bo'lgan tadqiqotlarni umumlashtirib sivilizatsiyaning bir qator mezonlari mavjudligini ta'kidlaydi.

O'tgan asrning o'rtalarida ingliz olimi G.Chayld o'sha paytdagi arxeologik ma'lumotlardan keng foydalanib yuqoridagi belgilarni yanada rivojlantirdi va unga qo'shimchalar kiritdi. G.Chayld taklif etgan sivilizatsiyaning o'n belgisi - shaharlar, mahobatli ijtimoiy inshootlar, soliq yoki boj tizimi, faol iqtisodiy hayot, shu jumladan savdo - sotiq, ixtisoslashgan hunarmandlarning ajralishi, yozuv va ilm - fan taraqqiyotining boshlanishi, rivojlangan san'a, imtiyozli tabaqalar va davlatni o'z ichiga oladi. 1958 yil Chikagoda bo'lib o'tgan ilk shaharlar haqidagi munozaralarda K.Klaxolm G.Chayld taklif etgan ro'yxatni qisqartirib undgi uchta belgini - mahobatli me'morchilik, shaharlar va yozuvni qoldirish lozim degan fikrni bildirdi. Bu uch belgi taraqqiyot uchun turtki bo'lgan aloqalar tizimi vositasida ma'lum jamiyatda sodir bo'lgan ijtimoiy hamda siyosiy jarayonlar bilan birlashib, dastlabki sivilizatsiyalar madaniyatining cho'qqisini tashkil etadi.

Bizga tarixdan ma'lumki, turar - joylar, ibodatxonalar, saroylar va qal'alar, himoya inshootlari, umuman mahobatli me'morchilik shaharlarining asosiy belgilari bo'lish bilan birga ularning ko'rki hisoblangan. Shaharlarda aholi zich yashagan. Shuning uchun ham " sivilizatsiya " tushunchasining etimologiyasi fuqorola, shahar jamoasiga borib tarqalishi bejiz emas<sup>25</sup>. Tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari aynan shaharlarda nisbatan jadalroq kechadi. Jamiyatni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy boshqaruv markazlari, ixtisoslashgan hunarmandchilik markazlari aynan shaharlarda joylashgan. Shaharlarda ayirboshlash va savdo - sotiqning ham roli nisbatan ustun bo'ladi. Ushbu jarayonni nafaqat dunyo tarixidagi balki O'rta Osiyoning shaharmand va ilk shahar markazlarda ( Namozgoh, Oltintepa, Sopolli, Jarqo'ton va boshq.) ham kuzatishimiz mumkin<sup>26</sup>. Hozirgi

<sup>25</sup> B. Eshov, Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi, Toshkent, 2006. – B. 10–11

<sup>26</sup> O'sha joyda 11 B.

zamonaviy tarixiy, falsafiy va ilmiy - ommabop adabiyotlarda rivojlangan jamiyat tipini sivilizatsiya deb ifodalash ayniqsa keng tarqalgan. Sivilizatsiya ayni damdagi ijtimoiy madaniyat rivojlanishining eng oliy darajasi sinonimi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ibtidoiy rivojlanish tuzumi doirasidan chiqib madaniylashgan turli jamiyatlarga nisbatan ham sivilizatsiya atamasi qo'llaniladi.

XIX asrdayoq tadqiqotchilar sivilizatsiyaga o'z munosabatlarini bildirgan bo'lsalar, XX asr tadqiqotchilari aqliy va jismoniy mehnatning ajratilishini, diniy dunyoqarash va yozuvning vujudga kelishini, shaharlar iqtisodiy va madaniy turmush markazlari vazifasini bajarishini sivilizatsiya belgilari sifatida qayd etiladi<sup>27</sup>. O'tgan asrda yashab ijod etgan ingliz tarixchisi A.J.Toynbi " sivilizatsiya" tushunchasi yordamida tarixni o'rganish asoslarini ishlab chiqdi. Muallif sivilizatsiyalar farqini eng avvalo tafakkur tarzida ko'radi. U madaniy belgi o'zida " sivilizatsiyaning qalbi, qoni, mohiyati" ni ifodalashi to'g'risidagi qoidani asosladi. Toynbining fikricha, sivilizatsiya geografik, milliy, diniy belgilar va boshqa belgilarning umumiyliigi bilan farq qiluvchi jamiyatning tor va mahalliy holatidir. 21 ta sivilizatsiyani ajratib ko'rsatadi. Bular: Misr, Xitoy, G'arb, Uzoq Sharq, Hindiston, slavyan, arab, Amerikaning tub xalqlari ( mayya, inklar, atsteklar ) sivilizatsiyasi va boshqalardir. Umuman olganda, turli olimlar tomonidan sivilizatsiyalarning 15 - 20 tadan 30 tagacha turli farqlanadi<sup>28</sup>.

Bevosita sivilizatsiya nazariyalari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu nazariyalarning ikkita tipi mavjud: a) sivilizatsiyaning bosqichma - bosqich nazariyalari; b) mahalliy sivilizatsiya nazariyalari. Bosqichma - bosqich rivojlanish nazariyalari sivilizatsiyani insoniyat jadal taraqqiyotning umumiy jarayoni sifatida o'rganadi. Mazku nazariyaning tarafdorlari fanda ilgari hukm surgan formatsiyalar nazariyasi o'rniga madaniyat degan yangi mezonni kiritib bu nazariyani rivojlantirishga harakat qiladilar.

<sup>27</sup> O'sha joyda 11 B.

<sup>28</sup> Eshov B, Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. Toshkent, 2006. – B. 12–14

Mahalliy sivilizatsiyalar nazariyalari tarixiy - madaniy jarayonlar natijasida vujudga kelib, ma'lum hududlarni egallagan hamda o'z ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan katta sivilizatsiyalarni o'rgandi. Bunday sivilizatsiyalar ma'lum hududlarda paydo bo'lib, hududlar o'rtasidagi turli munosabatlar tufayli o'ziga xos ayrim xususiyatlarini qo'shni hududlarga ham tarqatishi ob'ektiv tarixiy - madaniy hodisa hisoblanadi. Misol uchun, Xarappa madaniyatining O'rta Osiyoga kirib kelishi yoki Ellinizm madaniyatining butun Sharqqa yoyilishi va hokazo.

Sivilizatsiya masalalari ko'rib chiqilgan ko'pgina adabiyotlarda Sharq sivilizatsiyasi va G'arb sivilizatsiyasi degan tushunchalar ishlatiladi. Qadimgi Sharqda bir - biridan mustaqil ravishda deyarli bir vaqtning o'zida bir nechta, Xitoy, Hind, Yaqin Sharq va boshqa sivilizatsiyalar hukm surgan<sup>29</sup>. Qadimgi Sharq tushunchasi mazkur sivilizatsiyalardagi jamiyatlarning rivojlanishidagi umumiy jihatlarni qadimgi G'arb sivilizatsiyasi - antik sivilizatsiyaga qiyosan o'rganadi. E'tibor berish lozimki, Sharq sivilizatsiyasining o'ziga xosligi ko'p hollarda ijtimoiy xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

Tarixiy xodisalar va voqealarning tarixiy aniqligida, tarixiy-madaniy taraqqiyot bosqichlarida shunday jihatlari borki ularni bir-biri bilan mantiqan taqqoslash, qiyosiy solishtirish asosida o'rganish, qo'yilgan masalaga ko'pgina oydinliklar kiritishi tadqiqotchilar tomonidan e'tirof e'tilgan. O'rta Osiyo, umuman dunyo tarixida ro'y bergan urbanistik (shaharsozlik) jarayonlar xususida turli davrlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va qiyoslash bu jarayonni chuqur va har tomonlama ta'riflash imkonini beradi<sup>30</sup>. Shuning uchun ham ilk shaharlar tarixini haqiqiy manbalar - arxeologik va yozma ma'lumotlar asosida tahlil etish - jamiyatda ro'y bergan qadimgi tarixiy-madaniy jarayonlarni anglab yetishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

<sup>29</sup> Eshov B, Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. Toshkent. Fan va Texnologiya, 2008. – B. 17–18.

<sup>30</sup> Eshov B, Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. Toshkent, Fan va Texnologiya, 2008. – B. 19–21.



Ko'p hollarda "urbanizatsiya jarayoni" deyilganda turli davrlardagi tarixiy-madaniy bosqichlarda va shart-sharoitlarda turli vazifalarni bajargan shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonlari tushuniladi. Jamiyatda ro'y bergan urbanistik jarayonlar va taraqqiyot darajasining asosiy omillari xususida tadqiqot ishlari olib borgan ko'pchilik tadqiqotchilar «ilk shahar» yoki «shahar» tushunchasini bir-birlariga bog'lik bo'lmagan holda turlicha talqin qilishlariga qaramay, ko'p hollarda ular tadqiqotlari xulosalarining bir-biriga ancha yaqinligini kuzatishimiz mumkin. Shunisi ta'kidlash sazovorki, ko'pchilik tadqiqotchilar (I.Masson, B.Litvinskiy, V.Sarianidi, I.Dyakonov, A.Asqarov, I.Shirinov, B. Udemurodov, I.Masimov va boshq.)

O'rta Osiyodagi urbanistik jarayonlarning asoslari eng qadimgi davrlarga borib taqalishini ta'kidlagan holda, uning boshlanishini eneolit, bronza davri bilan belgilaydilar va o'z xulosalarini dalillar bilan isbotlashga xarakat qiladilar. Avvalo shunga e'tibor berish lozimki, tarixiy, ilmiy va psixologik adabiyotlarda ko'plab uchraydigan «urbanizatsiya» ("shaharlashish», «shaharlashuv», «shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi» yoki «shaharsozlik madaniyati») tushunchasining mohiyati va mazmunini tadqiqotchilar turlicha talqin etadilar hamda bu borada ular orasida aniq bir fikrga kelinib, yagona konsepsiya yaratilmagan<sup>31</sup>.

Ibtidoiy turmushdan jamiyat rivojlanishining nisbatan yuqori pog'onasiga o'tishning umumiy manzarasini tadqiq etish hozirgi kunda uslubiy yondashuvni yanada chuqurlashtirish hamda ushbu tadqiqotlarda aniq yo'nalish ishlab chiqishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan ham shaharlarni urbanizatsiya jarayonining asosiy mezoni sifatida talqin etish masalasi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Metodologik jihatdan shaharni faqat yangi shakldagi jamiyat toifasiga kiruvchi hodisa emas balki, muhim va asosiy omil deb hisoblash ham nihoyatda muhimdir. Fikrimizcha, bu jihatdan shaharlarning paydo bo'lishini tuzumdagi yangi ijtimoiy belgilarning yuzaga kelishi va shakllanayotgan tuzum aloqalari hamda munosabatlari bilan yemirilayotgan

<sup>31</sup> Eshov B, Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. Toshkent, 2006. – B. 20

ibtidoiy jamiyat o'rtasidagi qarama qarshilikni bartaraf etuvchi jarayon sifatida ta'riflash maqsadga muvofiqdir. Dastlabki shaharlar markazlarining tuzulishi va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish shaharlar tarixini o'rganish uchun nihoyatda muhimdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy tahlil jarayonida foydalaniladigan tushuncha nuqtai nazaridan qadimgi shaharlar aholisi bir yerda zich joylashgan, ishlab chiqarish qurollari markazlashgan hudud, madaniy va mafkuraviy imkoniyatlar markazi, o'ziga xos hunarmandchilik va savdo-sotiq vazifalarini bajaruvchi yirik punktlar sifatida izohlanadi. Ma'lum hududni yoki manzilgohni (qishloqni) shahar sifatida izohlashda tashqi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan birga ichki sifatiy va tuzilishga oid o'zgarishlar ham nihoyatda muhimdir. Xususan, O'rta Osiyo, umuman dunyo tarixidagi eng qadimgi shaharlarning shakllanishi va rivojlanishini tahlil etganimizda ushbu fikrning to'g'riligi ayon bo'ladi. Sotsiologik nuqtai nazardan «shahar» - bir-biriga tutash uylardan iborat aholi zich joylashuvi turar joylari sifatida izohlanadi. Bunday ta'rifdan so'ng katta qishloqlarni «shaharlar» deb hisoblash bilan kifoyalanish ham mumkin. Fikrimizcha, ushbu ta'rifning haqiqatga qanchalik yaqin ekanligi va ob'yektivligi umumiy tarixiy-madaniy shart-sharoitlarga (paydo bo'lish shart-sharoitlari, aloqalari, joylashuvi va boshq.) bog'liqdir.

Iqtisodiy nuqtai nazardan shaharni aholining katta qismi qishloq xo'jaligi emas, balki, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi hudud sifatida ta'riflash mumkin. Bizning fikrimizcha, shunga o'xshash barcha hududlarni ham «shaharlar» deb atash maqsadga muvofiq emas. Qadimgi manzilgohlarning paxsa uylardan iborat zich qurilgan inshootlarini hisobga olgan tadqiqotchilarning fikricha, ularning muhim ahamiyatga ega bo'lgan miqdoriy chegara o'lchamlari ilk shahar markazlari shakllanib rivojlangan Mesopotamiya va qadimgi Baktriya uchun 6-7 gektardan iboratdir.

Tadqiqotchilar aynan shunga o'xshash, ya'ni maydoni 6-7 gektardan ortiq barcha manzilgohlarni «shaharlar» deb e'tirof etadilar<sup>32</sup>.

Shahar tushunchasini anglash va uni ishlab chiqishdagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar haqida bahs ketar ekan, I.M.Dyakonov va V.A.Yakobsonlar mil. avv. III ming yillik qadimgi Shumer misolida shahar-davlatlar shakllarini aniqlovchi ayrim belgilarini ajratadilar<sup>33</sup>. Bular - unchalik katta bo'lmagan hudud, bir hududiy jamoa yoki bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan bir nechta jamoa chegarasida joylashuv, tabiiy chegaralar: tog'lar, atrof vohalar, dashtlar, sug'orish kanallari o'rab turgan kengliklar, bosh xudo ibodatxonasi va uning atrofida ma'muriy xo'jalik hamda hunarmandlar ustaxonalari joylashgan markazlar, bu hududni o'rab turgan devorlardir. Fikrimizcha, ushbu konsepsiya, «ilk shahar» tushunchasining ko'pgina jihatlarini o'zida mujassamlantiradi va bu jarayonni izohlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shahar - odamlarning nisbatan qadimgi va shu bilan birga eng zamonaviy hududiy joylashuv shakli bo'lib, uning taqdiri va gullab-yashnashi bilan unda yashovchi har bir fuqoro qiziqishi tabiiydir. Shaharlarning paydo bo'lishi, mavjudlarining rivojlanishi atrof-muhitning o'zlashtirilishi bilan bog'lik bo'lib bu jarayon ijtimoiy tuzum taraqqiyoti va xususiyatini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, har bir tarixiy davr shaharsozligining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shahar - bu insoniyat tomonidan tabiiy yaratilgan hayotiy zarurat bo'lib, uning har tomonlama faoliyat ko'rsatishi uchun o'ta muhimdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asqarov A. Eng qadimiy shahar, Toshkent, Ma'naviyat, 2001 – yil. 3 – 7 b.

<sup>32</sup> Eshov B, Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. Toshkent, 2006. – B. 24-25.

<sup>33</sup> O'sha joyda. 25 B.



2. Belenitskiy A.M., I.B. Bentovich, O.G. Bolshakov, O`rta Osiyoning o`rta asr shahri, SSSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti, Nashriyot: “ Nauka”, Leningrad, 1973 – yil. 3-43 b.
3. Nazirov B.S, Sattorov F, Panjiyev J. “O`zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Surxondaryo viloyati misolida)” Toshkent, 2023 y.
4. Sattorov F, “Anushteginiylar sulolasi davrida Xorazmda davlatchilik jarayonlarining yuksak bosqichlarga ko`tarilishi”, Science and education scientific 2022.
5. Sagdullayev A.S. O`zbekiston tarixi, T., 2019. 76 – 93 b.
6. Jo`rayev N. va boshqalar... O`zbekiston tarixi. T., 1998.
7. Eshov B. Qadimgi O`rta Osiyo shaharlari tarixi, Toshkent, 2006 – yil. 6 – 21, 61 – 71 b.
8. Sattorov F, Sultonov A, “Mirzo Ulug`bek tarjimai holi va Ulug`bek qabrining ochilishi va uning tavsifi masalalari”, Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 2022.
9. Eshov B. Qadimgi O`rta Osiyo shaharlari tarixi, Toshkent, Fan va Texnologiya, 2008 – yil. 17 – 26 b. 27 – 37 b.